



ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№2

ТА'ЛИМ ВА  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH



**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



№2/2024  
**FEVRAL (2)**

<p><b>Muassis:</b> Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p><b>Bosh muharrir:</b> Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p><b>Jamoatchilik kengashi raisi:</b> Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p><b>Mas'ul kotib:</b> Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p><b>Texnik muxarrir:</b> Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p><b>Tahririyat manzili:</b> Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan <b>PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI</b> bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p><b>Bosishga ruxsat etildi:</b> 10.03.2024 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami №0324 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar <a href="https://interscience.uz/">https://interscience.uz/</a> saytida joylashtirildi</p> <p><b>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305</b> raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy- metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
	Ko'charov J. Q. Buxoro va Jung'or xonliklari o'rtasida siyosiy munosabatlar tarixi.	3
	Orziev M. Z. XVIII asr birinchi yarmida Qo'qon va Jung'or xonliklarining sisiy va diplomatik munosabatlari tarixidan	8
	Orziev M. Z., Бекназаров С. Б. XIII-XIV asr birinchi yarmiga qadar Movarounnahrda turk-mo'g'ul qabilalarining joylashuvi.	14
	<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
	Akramova S. R. She'riyat tilida “dil” va “jon” konsepti asosida shakllangan qo'shma so'z va izofali birikmalarning uslubiy xususiyatlari	20
	Avezov S. S. Buxoro folklorida yangi bolalar ijodkorligi namunalari	24
	<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
	Akramova G. R. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni intellektual layoqatini aniqlash asosida rivojlantirish	29
	Abdukarimova R. A. Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish omillari.	35
Adizova N. B., Norqulova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish	38	
Adizova N. B., Yoriyeva M. O. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'zbek bolalar folklori namunalari o'rgatish metodikasi	44	
Adizova N.B., Olimova S. U. Boshlang'ich ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	48	
Ashurova Z. M. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi	54	
Алимова А. Н. TIMSS: Международное исследование и его влияние на мышление школьников 4-х классов.	59	
Boboqulova M. A. Talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishda muammoli ta'lim texnologiyasining ahamiyati	67	
Boymurodova S. I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning muloqotchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish nazariy asoslari	70	
Baxronova G. T. Boshlang'ich ta'lim natijalarini xalqaro dasturlar(EGMA va EGRA) kreteriyalari asosida baxolashning pedagogik asoslari	73	
Бабаназарова М. Н. АРТ-педагогика - неотъемлемая часть образовательного процесса.	80	
Inoyatov A. X. IX asr movarounnahr tafsirshunosligida hadis to'plamlarining ahamiyati	86	

Soxibov A. R. Oliy ta'lim muassasalaridagi innovatsion o'zgarishlar omillarining interfaol o'zaro harakatlarini optimallashtirish yo'llari	257
Tilavova M. M., Rajabova L. Ch. Boshlang'ich ta'lim texnologiya dasrlarida amaliy ishlarni tashkil etishda steam-yondashuvdan foydalanish	264
Tohirova G. Yu. Oliy ta'lim pedagogikasini modernizatsiyalashning aksiologik asoslari	273
Tolipov U. K., Khaldarov H. A. Pedagogik ergonomika fan tarmog'i sifatida	276
Toyirova D. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli savodxonlik ko'nikmlarini shakllantirishda o'qituvchining raqamli texnologiyalardan foydalanishi	280
Tursunova N. I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorligini, qobiliyati va tafakkurini rivojlantirish	287
Ташева С. Р. Применение методов классической статистики при исследовании успеваемости и оценки критериев компетентности студентов, обучающихся по совместным образовательным программам в вузах Узбекистана	291
Тураев М. М., Наимова М.Ф. Применение высших водных растений для повышения эффективности рыбководства: экологические и биотехнологические аспекты	295
Усманова К. Б. О рефлексивных умениях и компетенциях учителя	299
Usmonova Z. I. Tabiiy fanlardan fanga oid tayanch kompetensiyalarni o'rganish va ularni darslarda qo'llash	304
Uzoqova Yu.B. Tohir Malik asarlari vositasida talabalarda ma'naiy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish mexanizmlari	308
Xakimova G. S. "Xorijiy tajribalar asosida nodavlat ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirishning nazariy asoslari"	310
Xaydarova M. Dj. Individual ta'lim muammosini hal qilishda turli xil yondashuvlar	313
Xayrullayeva D. N. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklarida xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanish metodikasi	320
Shodiyeva G. X. Sharq madrasalarining faoliyati hamda ularda o'quv-tarbiyaviy jarayon masalalari	324
Shoyeva Yu. A. Boshlang'ich matematika kursida masalalarning ahamiyati	328
Shalankov K. K. Musiqa terapiyasi darslarida tibbiyot talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari	334
Ashurova D. G. Oliy ta'lim muassasalarida hamkorlik strategiyalari asosida ingliz tili fanini o'qitishning muhim yo'nalishlari	337
Protasov Yo.Yo. Robototexnikaning rivojlanishi va istiqbollari	342
Abdullayeva Z. I. Socio-psychological characteristics of the influence of talent on the communication style of a person	348
Navruzova N. X. Connotative meanings and emotional impact conveyed by verbs and their role in communication.	351
Haydarov A. A., Tosheva F. Modallik ma'nosini ifodalashning lingvistik asoslari	356
Mirzaqobilova S. A. Tarix darslarida fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish usullari	358
Jo'rayeva D. O'. Uchinchi renessans avlodni maktab ta'limiga tayyorlashda tarbiyachilarni kasbiy malakalarini baholash	361
Abdishukurov B. F. Milliy-hududiy chegaralanish arafasida turkiston, xorazm va buxoro respublikalarining o'zaro munosabatlari tahlili	366
Turamov M. R. O'smirlarda emotsional intellektni namoyon bo'lishining gender tavofutlarining o'ziga xos xususiyatlari	369
Jumanova F. U. Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini oshirishning diagnostikasi	372
Shermatova M. I. Bo'lg'usi pedagogika fani o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	374
Isamova D. R., Haydarov A. A. Lingvopoetikani o'rganishning nazariy asoslari.	379
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Odilova Yo. I. Ota-onalarning bolaga munosabatida ijtimoiy fobiyani keltirib chiqaruvchi psixologik omillar	382
Rizakulova S. I. Rahbar shaxsining noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilishida individual xususiyatlarning ta'siri	388
Safarova Dilafruz Salimovna Psixolog kasbiy faoliyatining pedagogik-psixologik aspektlari	391
Jurayev X. O. O'spirin yoshida huquqbuzarlik xarakterlarining pataxarakteralogik va psixopatologik xususiyatlarining namoyon bo'lishining nazariy jixatidan yoritilishi Jurayev X. O. O'spirin yoshida huquqbuzarlik xarakterlarining pataxarakteralogik va psixopatologik xususiyatlarining namoyon bo'lishining nazariy jixatidan yoritilishi	394

## LINGVOPOETIKANI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Isamova Dilfuza Rakhmatovna

Buxoro davlat universiteti, qo'shma ta'lim dasturlari bo'limi, ingliz tili o'qituvchisi.

Haydarov Anvar Askarovich,

Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrası professori.

<https://orcid.org/0009-0004-4109-4100>

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvopoetika tilshunoslikning bir sohasi sifatida o'zbek va jahon shoirlari she'rlarini tahlil qilish orqali lingvopoetikaga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar haqida fikr yuritilgan. Badiiy she'riyatning lingvistik tahlili misollar va barqaror birikmalar orqali berilishi va ushbu lingvistik tushunchaning mohiyatini izohlashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, metod, badiiy matn, lingvistik tahlil, birikmalar, maqsad, vazifalar.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИНГВОПОЭТИКИ.

Аннотация. В данной статье рассматривается лингвопоэтика как сфера языкознания путем анализа стихов узбекских и мировых поэтов, дается оценка лингвопоэтике и различные подходы к данному явлению. Лингвистический анализ художественной поэзии посвящен тому, как она представлена примерами и устойчивыми ассоциациями, и интерпретации природы этого лингвистического понятия.

Ключевые слова: лингвопоэтика, метод, мировых поэтов, лингвистический анализ, устойчивые сочетания, цель, задачи.

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF LINGUOPOETICS

Annotation. This article reflects on the assessment given to linguopoetics and different approaches to this phenomenon through the analysis of poems by Uzbek and world poets as a branch of linguistics. The linguistic analysis of artistic poetry is devoted to giving through examples and stable combinations and explaining the essence of this linguistic concept.

Keywords: linguopoetics, method, artistic, linguistic analysis, stable combinations, purpose, tasks.

Kirish. Bugungi davr adabiyotida eng yuksak yutuqlardan biri, badiiy matnni tahlil qilish, uning barcha turdagi namunalari, adabiyotshunoslik va adabiy va badiiy ilmlari o'z izlanishlari, ilmiy qarashlari, mazmun mohiyati, metod, va usullariga ko'ra yuzaga kelishidir. Adabiyotning nasri ham, she'riyati ham qator yangi, teran ijodlar va badiiy asarlar bilan boyib bormoqda. Tilshunoslikda yangi sohada shakllangan yo'nalishlarning takomillashishi ilmiy tadqiqotlar kengayishiga zamin yaratmoqda. Sof tilning lingvistik til faktlari o'rganilishi bilan bog'liq bo'lgan hozirgi kungacha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar bir nechta fanlarning integratsiyasi amalga oshirilishi bois sotsiolingvistika, psixolingvistika, prag-malingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi yangi fan yo'nalishlari yuzaga keldi. Lingvopoetika sohasining paydo bo'lishida tilshunoslik fanining adabiyotshunoslik bilan kelishuvi natijasida yangi termin va tushunchalar doirasi rivojiga sabab bo'ldi. Badiiy asarni adabiy tanqidiy tahlil qilishda nafaqat ilmiy adabiyot nuqtai nazaridan, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham yondashuv zarurligi e'tirof etildi. Tilning estetik funksiyasining asosiy namoyon bo'lishi badiiy asar matni bo'lganligi sababli, ushbu funksiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika va lingvistik stilistika, tilshunoslik, tarix, leksikologiya, etimologiya grammatika kabi sohalar bilan birgalikda ko'rib chiqildi. Shu bilan birga bir qator tilshunoslar va adabiyotshunoslar ushbu muammoni ilmiy asosda o'rganish uchun alohida fanni yaratish kerakligi haqida qayd etdilar. Masalan, B.A. Larin: "Ertami-kechmi, menimcha, tez orada til estetikasi alohida fan sifatida tan olinadi". Shu ma'noda, badiiy asar tilning estetik funksiyasining namoyon bo'lishi sifatida o'rganadigan soha "lingvistik poetika"- "lingvopoetika" filologiya fanida yanada takomillashdi va "lingvistik poetika" o'rnini aniqlashtirish uchun ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Aksariyat tilshunoslar va adabiyotshunoslar tomonidan bu tadqiqotlarni ilmiy asosda o'rganish uchun alohida fanni shakllantirish kerakligi g'oyasi ilgari surildi. Til adabiyotning asosiy tamoyili bo'lganligi sababli, badiiy she'riyatni lingvistik tahlil qilish, ilmiy o'rganishni taqozo etadi. Biz ushbu maqolamizda jahon, rus va o'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasining tadqiq darajasi va o'rganilishi haqida alohida to'xtalamiz.

Tahlil va metodlar. Jahon tilshunosligida lingvopoetikaning o'rganilishi alohida bir soha sifatida o'rganildi. Til ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida hammavaqt badiiy xususiyatlari bilan o'ziga xos va mukammaldir. Biror so'zlashuvchi yoki tinglovchi uchun fikrni qanday qilib aytishdan ko'ra, uni to'g'ri talaffuz qila olish qulayroq va osonroqdir. Shuning uchun, yangi davr adabiyotida qulaylik yaratish maqsadida, foydalanish uchun fonetik va leksik so'zlar ravonlikni ta'minlaydi. Badiiy she'riyatning muhim yo'nalishi esa so'z va umuman g'oya va fikr bo'lib, u yozuvchining hodisalarni real san'at darajasiga ko'tarish maqsadida xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ijod jarayonida til materiallaridan yetarli foydalanish, kerakli omil va nutq madaniyatini yanada yaxshilash va yuzaga kelgan muammolarni tuzatish uchun va xalq, jamiyat va jamoatchilikga taaluqli bilimlarni yetkazish bilan o'zaro bog'liqdir.

Muhokama. Jahon tilshunosligida lingvopoetikaning o'rganilishi alohida o'ringa ega. Tilimizning turli tamoyillarini o'zida mujassamlagan va badiiy butunlik sifatida o'rganiladigan tilshunoslik 1920-yillarda paydo bo'lgan va tizim-tarkibiy tilshunoslik nomi bilan atalgan. Jumladan, V.M.Jirmunskiy, G.E.Lessing, O.S.Axmanova F.Shiller, Gumboldt V.V.Vinogradov, V.Ya.Zadornova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba A.A.Potebnya, ishlari o'rganildi, muhim ilmiy xulosalaridan foydalanildi. A.Xolodovichning «Adabiy til uslubshunosligi», «Poetikada lisoniy usul» asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaning filologiya ilmidagi alohida fan sifatida o'rganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, XX asrda Ferdinand de Sossyur tomonidan asos solingan qarashlar tilshunoslikda yuzlab yangi lingvistik tizimlar yuzaga keldi va takomillashdi, ular orqali zamonaviy yutuqlarga erishildi.

Badiiy matni tahlil qilish va to'g'ri talqin qilish qobiliyati shaxsning ma'naviy-madaniy darajasi, yetukligi, borliqni anglash salohiyati, hissiy va estetik qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim ekanligi barchaga ma'lum. Nizomiddin M.Mahmudov ta'kidlaganidek, «Shakl tahlilini mazmun tahlilidan ajratmaslik kerak, faqat shu yo'l bilan muallifning niyatini to'g'ri tushunish, oddiy o'qish jarayonida e'tibordan chetda qoladigan turli ma'no nozikliklarini aniqlash mumkin bo'ladi.» Ma'lumki, poetika badiiy asarlardagi ifoda vositalari tizimi hamda, adabiy mulohazalar tanqidning ilgari surilgan haqidagi qadimgi fandi. «Poeziya» atamasi birinchi marta Aristotel she'riyatida qo'llanilgan bo'lib, ushbu badiiy asar va uning uslub va metodlari bilan bog'liq nazariy hodisalarni qamrab olgan ilk asarlardan biri hisoblanadi. Qadimdan, to'hozirga qadar, poetika adabiy tanqid bilan o'zaro bog'liq bo'lib, fan sifatida shakllangan. Zamonaviy adabiyotda, poetika haligacha adabiy tanqid bilan bog'liq va yuqorida ta'kidlanganidek, tilshunoslikka o'z o'rnini egallaydi. Jahon tilshunosligida lingvopoetika kirib kelishi bilan juda keng ravishda qo'llanilib kelingan. Tatar tilshunosi X.R.Kurbatovning ta'kidlashicha, lingvopoetikaning tarmoqlaridan biri she'r ritmidir, chunki she'r tizimi tilning o'ziga xos xususiyatlariga, birinchi navbatda uning fonetik xususiyatlariga asoslanadi. Lingvopoetikani o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda badiiy adabiyotning mavzusi lingvistik yondashuvdan kelib chiqib, asarning ma'no jihatidan yanada real voqelikga asoslanishga xizmat qilishi diqqatga sazovordir.

Natijalar.

So'nggi yillarda badiiy asarlar tilini lingvopoetik o'rganish markazda bo'lib, shu sohada ko'plab tillarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki til va adabiyot har doim real faktlarga asoslanadi. Rus tilshunoslari ham badiiy matni tadqiq qilishda til nuqtai nazaridan qo'llaniladigan usullarni ishlab chiqish haqida yillar davomida bosh qotirdilar. Xususan, so'zlarning estetik ta'siri, ma'no va mazmun uyg'unligi, individual lingvopoetik tahlilni o'tkazishda muallifning uslubi, badiiy ijodda poetikaning alohida o'rnini, adabiy tildan undagi til obrazlari nasriy tildan farq qilishi, poetika leksik-stilistik jihatdan badiiy uslubning o'ziga xos turi ekanligi, uning xususiyatlari janr leksikonda o'ziga xos jihatlari bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda.

Rus tilshunosligida badiiy matn va uning metodologiyasini lingvistik ishlab chiqish masalasi birinchi marta L.V.Shcherba tomonidan ko'tarilgan. Shcherba o'tgan asrning 30-yillarida lingvistik matn tahlilining asosiy vazifasini ko'rsatish uchun til vositalari adabiy asarning g'oyaviy va tegishli hissiy mazmuniga jalb qilingan. Buyuk rus filologi R.Budagov o'z maqolasida «Til fani adabiyot faniga nima berishi mumkin?» , uning fikriga ko'ra, bu ikki fan juda ko'p masalalarni ochib beradi va tilshunoslikning adabiyotshunoslikka olib keladigan «afzalliklari» haqida batafsil ma'lumot beradi. Taniqli rus filologlari V.Jirmunskiy, A.A.Potebnyaning «Poetikaning vazifalari» nomli asarlarida, uning umumiy mazmunida yuzlab e'tirozlar mavjud bo'lsa-da, poetikaning umumiy til fani-tilshunoslik bilan bog'liq ekanligi yaqqol isbotlangan. Badiiy asar yaratishning o'ziga xosligi shundakii, so'zlarni qo'llashda qobiliyatlar, badiiy tasvir vositalaridan o'z o'rnida to'g'ri va unumli foydalanish imkoniyatlarini va shularga asoslangan holda, umumiy maqsad tilning boyligi va go'zalligini ko'rsatib berishdir. Badiiy asar lingvistikasi V.Vinogradov tomonidan aksariyat asarlarida ushbu masalalarning har birini alohida o'rganishgan. Masalan, uning «Stilistika», «She'riy nutq nazariyasi», «Poetika» kabi asarlarida, lingvopoetika haqida batafsil fikr yuritgan. Demak, badiiy matn poetikasida lingvistik yondashuv, ya'ni lingvopoetika boshqa yondashuvlarni rad etmaydi, faqat ushbu yondashuvning yetakchi o'rinda ekanligini ko'rsatadi. Boshqa bir jihatdan qaraganda, ba'zi rus olimlari tomonidan jiddiy ilmiy e'tirozlarga ham sabab bo'ldi. Ammo, mashhur rus olimlari, o'z asarlari orqali bu e'tirozlarga fikr bildirishgan. Masalan, R.A.Budagov bu talabga quyidagicha javob beradi: «Men poetika filologik bilimlar tizimida ajralmas fan ekanligiga chuqur ishonaman. Shuningdek, A.A.Lipgart zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalarini o'rgangan, hamda uning vazifalarini belgilagan. O'zbek tilshunosligida ham lingvistik yo'nalishda talaygina ilmiy ishlar yaratilgan va yaratilmoqda. Shubha yo'qki, keyingi o'n yilliklarda o'zbek tilshunosligida lingvistik va she'riy tadqiqotlarning lingvistik ilmiy ishlarda to'plangan tajriba va nazariy xulosalar tabiiy ravishda paydo bo'lishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan ular o'zbek adabiyotida yuksak mahorat bilan yaratilgan she'riy va nasriy asarlarni, folklor namunalari tilini tahlil qilishda, tegishli ilmiy xulosalarni umumlashtirishda keng namoyon bo'ladi. Shuningdek, O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning shakllanishi va rivojlanishida H.Doniyorov, S.Mirzayev, K.Samadov, I.Qo'chqortoyev, H.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzaev, M.Yuldashev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Yuqorida ismlari zikr etilgan olimlar badiiy asar tilining stilistik, lingvistik, badiiy va estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlash mahorati, tilning o'ziga xos xususiyatlari, davlat tiliga munosabati, yangi iboralar va so'zlarni yaratish va o'rganish kabi omillarni yaratib, o'rgandilar.

Jumladan, N.Mahmudov o'zining qator maqolalarida ayrim shoir va yozuvchilar she'rlarining lingvopoetikasi haqida qiziqarli va mazmunli g'oyalarni ilgari surgan. B.Sarimsoqov o'zbek xalq og'zaki ijodida o'ziga xos lingvistik va stilistik yo'nalishlarini chuqur o'rgangan, lingvistik folklorini ajratib sharhlab bergan.

U quyidagicha yozadi: «... Tilshunos yoki adabiyotshunos bo'lsin, ular lingvopoetika va badiiy(majoziy) muammolarda birlashishi kerak, shunda ular haqiqiy filologlarga aylanadi. Badiiy muammolar esa faqat filologik muammolardir...». Tilshunos olim B.Yo'ldoshev tomonidan bir necha yillardan



buyon badiiy asarlar tili, asosan, tilshunoslik yo'nalishida ilmiy ishlar olib bo'lyotgan Z. Shodiyeva bilan hamkorlikda nashr etilgan monografiyada muayyan asarni lingvistik va she'riy tahlil qilish masalalari yoritilgan. L. Jalolovning maqolalarida badiiy asarlardagidagi muayyan yo'nalish va lingvopoetik tahlil qilish badiiy she'riyatni mazmun birligi va uning ilmiy lingvistik belgisi sifatida tahlil qilishni e'tiborga oladi. U lingvostilistik tahlillash natijalariga tayanadi va adabiy tanqid yo'nalishdagi yutuqlarni inobatga oladi. O'zbek xalq she'riyatining lingvistik va poetik xususiyatlarini metafora, malaka, taqqoslash, singari qadimiy usullarni tahlil qilish orqali o'rgangan M. Yoqubbekova ushbu yo'nalishda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Xalq qo'shiqlari poetikasini tashkil etuvchi elementlar orasida, masalan, qo'shiq syujeti, kompozitsiyasi, obrazlari, qo'shiqning lingvistik san'ati katta ahamiyatga ega. I. Mirzaev ta'kidlaganidek "Bugungi kunda lingvopoetika filologiyaning yaxlitligini tiklashga qodir soha sifatida tan olinganligi sababli, uning maqsad va vazifalarini, tadqiqot obyektini, fanning boshqa sohalar bilan aloqasini aniqlashtirish va bu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish zarur... Ushbu sohadagi tadqiqotlarni ko'paytirish va kuchaytirish zarurati filologiya fanining kelgusi yillardagi eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi".

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, lingvopoetik tahlilni o'tkazishda muallifning uslubi, badiiy ijodda poetikaning alohida o'rni adabiy tildan undagi til obrazlari nasriy tildan farqi, nutq tantanasi bilan, poetika leksik-stilistik jihatdan badiiy uslubning o'ziga xos turi ekanligi, uning xususiyatlari janr leksikonda unga xos ravishda boshqa janrlarda kam ishlatiladigan so'zlar va so'z shakllari bilan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda lingvopoetika yo'nalishida yaratilgan tadqiqotlar tilimizning boyligini ko'rsatish, filologiyaning yaxlitligini ta'minlash bilan bir qatorda, yetuk tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi. Kuzatishlarimiz natijasida, lingvopoetik tadqiqot asoslari va ularning nomlanishi birlashtirilgan bo'lishi kerak. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, matn lingvistik nuqtai nazardan murakkab tuzilma bo'lib, u barcha lingvistik xususiyatlarni o'z ichiga oladi va u tilshunoslikning barcha sohalarida asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shunga asoslanib aytish mumkin ki har bir yozuvchining badiiy asar yaratishning o'ziga xos uslubi, so'z qo'llash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Noqardosh til va madaniyatga ega ingliz va o'zbek shoirlari she'rlarining qiyosiy lingvopoetik tahlili haqida keyingi ishlarimizda fikr yuritimiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 00 . – 558 b.
2. Yo'ldashev. M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2007.- 15 b.
3. Aliyev A. Yu. O'zbek adabiy tili tarixidan materiallar. –T.: O'zbekiston, 1996. – 118 b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 00 . – 558 b.
5. Nizomiddin M. Mahmudov, „Til va madaniyat“ (1999).
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, Fan - 2007.
7. Oripova, K. (01). Til va madaniyatning uzviy aloqadorligi.
8. Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы): 1996.
9. Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2017. Б. 14.
10. Умирова С.М. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 019. –Б.1
11. M. Kurbanova. Matn tilshunosligi. Toshkent Universiteti. 2014
1. Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. T.: O'qituvchi, 1984. – 151 b.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'tgan.  
Jurnal har oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.  
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o'z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O'zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so'zlari:

Oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi; ta'lim jarayoni; ko'p madaniyatli va mintaqaviy ta'lim; III Renessans, XXI asrdagi ta'lim; ta'lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuvorliklari; ta'lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi; ta'lim dasturlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari; o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta'lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882

Bosh muharrir: B.B.MA'MUROV

**Bosishga ruxsat etildi:** 10.03.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324

«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar.  
<https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi